

M.LYUSHERNING RANG TANLASH

TESTI

Rang tanlash metodi M.Lyusher tomonidan 1961 yilda taklif qilingan. Rang tanlash metodi insonning emotsional (ta'sirchanlik) holatini o'ziga xosligini aniqlashda qo'llaniladi. Bu metod yordamida inson o'ziga qanday munosabatdaligini va boshqa insonlar bilan o'zaro aloqalarini o'ziga xosligini aniqlaydi.

Rang, tabiatdagi eng ta'sirchang xodisadir; ranglar bir-biriga qo'shib butun olamni ma'naviy jihatdan qabul qilish imkoniyatini beradi. Ranglarni shu sifatlari M.Lyusher testi negizini tashkil qiladi.

Ranglar testining mumtoz variant ko'ra M.Lyusher testi 2 ta asosiy to'la va qisqa shaklda ko'rsatilgan. Biz testning qisqa fshaklini qo'llanilishini taklif qilamiz.

Qo'llanmaning maqsadi: Insonning xarakter xususiyatlarini o'ziga xosligini (o'z xolatini) aniqlash.

Metodikani o'tkazish uchun zarur jixozlar: 8 ta rangli kartochka: kul rang (0), ko'k (1), yashil (2), qizil (3), sariq (4), siyoxrang (5), jigarrang (6), qora (7).

Qo'llanma:

Rangli kartochkalarini aralishtirib rangli tomoni ko'ringan holda qo'ying va ko'rsatilgan sakkizta rangdan o'zingizga yoqqanini tanglang.

Test natijalariga ko'ra quyidagilarni aniqlash mumkin: Shunday rang tanlangki, sizni yaxshi ko'rgan kiyimingiz yoki ko'zingiz rangiga o'xshagan rang bo'lmasligi kerak. Aynan hozir, shu erda sizga yoqqan rangni tanglang.

Tanlangan kartochkani olib rangli tomonini pastga qaratib qo'ying. Kartochkani raqamini yozib oling. Keyingi qolgan 7 ta kartochkani sizga eng yoqqanini tanlaysiz. Raqamini yozib olib, rangli tomonini pastka qaratib qo'ying. Shu holatni kartochkalar qolmagunicha takrorlang.

2-3 daqiqadan so'ng kartochkalarini rangli tomonini ko'rsatib qo'ying, aralashtiring va oldin bajarganlaringizni takrorlang. Lekin birinchi variantdagi ranglarni eslashga harakt qilmang. Siz buni birinchi marta bajarayotganday amalga oshiring.

Birinchi tanlash-istagan holatini ta'riflaydi. Ikkinchisi-shaxsning aynan hozirgi holatini aniqlab beradi.

Sinovni qanday maqsadda qo'llanilishiga qarab natijalarni izohlash mumkin.

Sinov natijalariga ko'ra 8 ta vaziyat paydo bo'ladi.

- birinchi va ikkinchi pozitsiya-aniq afzallik (Q Q bilan belgilanadi);
- 3 va 4 pozitsiya- boshqalardan afzalroq (x x - bilan belgilanadi);
- 5 va 6 pozitsiya- rangga befarqlik- (q q bilan belgilanadi);
- 7 va 8 pozitsiya- rangni yoqtirmaslik (- - bilan belgilanadi);
- 1 va 8 - afzal ko'rgan va yoqtirmagan ranglar (Q - bilan belgilanadi).

- birinchi juft rangli kartochkalar bo'yicha G' jadvaldagi tekst «Q» belgisi bilan belgilanadi - shaxsning xohlagan maqsadi yoki xohlagan xulqi;

- ikkinchi juft rangli kartochkalar G' «x» belgisi bilan belgilanadiG' insondagi mavjud bo'lgan holatlar, xulqi;
- uchinchi juft rang kartochkalar G' «q» belgisi bilan belgilanadiG' shu holdagi joylashgan narsalarga javob bermaydigan bosiqlik xususiyati yoki xulqi;
- to'rtinchi juft rangli kartochkalar G' «-» belgisi bilan belgilanadiG' xavf tug'diruvchi, yuzaga chiqara olmaydigan holatlar va xususiyatlar;
- beshinchi juft- birinchi va oxirgi kartochkalardan tashkil topgan G' «Q -» belgisi bilan belgilanadiG' stress natijasida yuzaga chiqqan muhim tashvishlar yoki xulqi.

Huddi shu ma'lumotni jadval orqali qisqa qilib ko'rish ham mumkin.

- 1- jadval: «Q Q» - Xohlagan maqsadlarini shartlariga ko'ra xohlagan xulqi;
- 2- jadval: «x x» - Hozirgi paytda insondagi mavjud bo'lgan holatlar, xulqi;
- 3- jadval: «- - » - Shu holdagi joylashgan narsalarga javob bermaydigan bosiqlik xususiyati yoki xulqi;
- 4- jadval: «q q» - Xavf tug'diruvchi, yuzaga chiqara olmaydigan holatlar va xususiyatlar;
- 5- jadval: «Q - » - Stress natijasida yuzaga kelgan xulqi yoki muhim tashvishlari.

Shunday qilib ranglar va ranglar juftligini qo'llagan holda insonni qanday vaziyatda turganligiga qarab, uni holatini, ta'sirchanligini (his tuyg'ularini) hamda individual o'ziga hosligini aniqlash mumkin. Ko'p hollarda inson nimadir bo'layotganini, nimadir ro'y berayotganini sezadi, his qiladi, lekin tushunmaydi. Bu masalani Lyusher testi osonlashtiradi.

Lyusher 36000 ta odamlar orasida o'tkazgan tajribalar natijasida shunday vaziyatlarni aniqladi:

- 1 - vaziyat - maqsadga erishish vositasini ko'rsatadi (masalan, ko'k rangni jonlash-ko'p kuch sarf qilmasdan xotirjam harakat qilish).
- 2 - vaziyat - inson intilayotgan maqsadni ko'rsatadi.
- 3 - 4 vaziyatlar - rangni u yoki bu sharoitda afzalligi; insondagi hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan haqiqiy harakatlar.

5-6 vaziyatlar - ranglarga befarqlik. Shaxs o'zini kayfiyatini, holatini bu ranglar bilan bog'lay olmaydi. 7-8 vaziyatlar - ranglarga manfiylilik.

Tanlangan kartochkalarning raqamlari yoziladi. Masalan: qizil, sariq, ko'k, kul rang, yashil, siyoh rang, jigarrang va qora rang tanlansa QQ xx qq - - (3 4 1 0 2 5 6 7) raqamlari yoziladi. Birinchi va oxirgi tanlangan ranglar qo'shilsa: «Q -» (3 7) - 3 4 1 0 2 5 3 7 3 7 raqamlarini yozib qo'yamiz. Har bir juftlik bo'yicha jadvalni ko'ring.

Ranglar: 4 ta asosiy va 4 qo'shimcha rangga bo'linadi.

Asosiy ranglar

1. Ko'k - xotirjamlik, qoniqish;

2. Ko'k-yashil-ishonchli harakat, bir fikrlik, gohida qaysarlik; 3. Apelsin rangi-qizil-harakatchang, chidamli, agressiv harakatlar; 4. Ochsariq-faol, muloqotga intiluvchan, yaxshi kayfiyat.

Bu ranglarni ma'nolarini joylashishlari bo'yicha shunday vaziyat bilan ko'rsatiladi. Shunday qilib 8 ta vaziyat tashkil topdi.

№ 1 va № 2 - aniq afzallik Q Q;

№ 3 va № 4 - afzallik x x; № 5 va

№ 6 - befarqlik q q;

№ 7 va № 8 - yoqtirmaslik - -.

Test natijalarini izohlash

Asosiy ranglarni natijalarini baholash shunday ko'rinish olishi mumkin. Agar ular beshinchi vaziyatdan pastda bo'lsa, talablari qoniqmasligi, sinalayotgan insonni xovotirli xoldaligi. Manfiylik xususiyati borligi tasdiqlanadi.

Asosiy ranglarni o'zaro joylashishlari ham muhim xususiyatga ega. Masalan, № 1 va № 2 (ko'k va yashil) birin ketin bo'lsa ularni umumiy ko'rinishlari diqqatni jalb etadi-bu sub'ektiv ichiga yo'nalish. Agar № 2 va № 3 ranglar birin ketin bo'lsa (yashil va qizil), ajralganligi diqqatni jalb etadi, yakka holda echim qabul qiladi. № 3 va № 4 birin ketin bo'lsa (qizil va sariq) yo'nalishi «tashidaligi» diqqatni jalb qiladi. № 1 va № 4 (ko'k va sariq), №1 va № 3 (ko'k va qizil) bitta funktsional guruhda atrof muhit bilan ijobiy tenglikda ekanligini anglatadi.

Agarda asosiy ranglar 1- dan 5 - vaziyatgacha bo'lsa qoqniqtiriladi. 6dan 8-gacha bo'lsa qandaydir mojaro, havotirlik, yoqtirmaydigan rang stress manbai hisoblanadi.

Lyusher ranglarni tanlab tahlil qilada ranglarni ishlash qobiliyatlariga shunday baho bergan:

- Ko'k rang bir maromdalik va xotirjamlikni bildiradi.
- Yashil rang qiyin vaziyatlarda karakteridagi irodaviy jipsligini ko'rsatadi. Bu jipslik faoliyatni davom ettirishda yordam beradi.
- Qizil rang, erkinlik, kuch va qoniqishni his qilish, o'z maqsadini amalga oshirish, shuningdek ishonchli faoliyatini quvvatlaydi.
- Sariq rang g'alabaga ishonchni ko'rsatadi, bo'lajak ish faoliyatini rejalashtirishni aks ettiradi; biron bir faoliyatni aniq anglamasdan undan qoniqish his qiladi.
- Agarda bu uchta rang qator boshidan ketma-ket bo'lsa, bunda ancha sermaxsul faoliyat, ancha yuqori ishonch bo'ladi. Agarda ular qatorni ikkinchi yarmida bo'lib va bir-biridan ajralgan holda bo'lsa bunda natija uncha yaxshi emas.

Havotir ko'rsatkichi. Agarda asosiy rang 6-o'rinda bo'lsa «-» bilan belgilanadi va hamma boshqalari keyingi (7 - va 8-o'rinlar) o'rinlar ham «-» bilan belgilanadi. Ularni

yoqmaydigan rang deb ko'rsatilishi-xavotirlik alomati, manfiy holati kompensatsiya (o'rnini to'ldirish) ko'rsatkichlari. Agarda havotirlilik, qattiq hayajonlilik (asosiy ranglar 6-dan 8gacha tushib ketsa) ranglari birinchi o'ringa ko'tarilgan bo'lsa, unda bu kompensatsiya ko'rsatkichi bo'lib ko'riladi (kompensatsiya sababi, kayfiyati, xulqi). Bunday hollarda birinchi o'rinda turgan raqamga S harfi qo'yiladi. Agarda bitta asosiy rang o'zgargan bo'lsa kompensatsiya (o'rnini to'ldirish) o'rtamiyona hisoblanadi. Bir vaqtni o'zida ruhiy zarb va kompensatsiya bo'lishi bu qulay sharoit holatida emasligidan darak beradi.

Boshqa hollarda kompensatsiya qo'shimcha ranglar bilan bo'lsa, test natijalari manfiy ko'rsatkich bo'ladi. Atrof muhitga manfiy qarash.

Xavotirlik ko'rsatkichi jadvali. Bu asosiy ranglarning joylashgan o'rinlarini ko'rsatadi. Agarda asosiy rang 6-o'rinda bo'lsa bu muhim holat, xavotir (tashvish) uyg'otuvchi, past ko'rsatkich va «!» belgi bilan belgilanadi. Agarda 7-o'rin - «!!»; 8-o'rin «!!!». Shunday qilib 6 ta shunday belgi qo'yilishi mumkin.

Masalan: ! !! !!!
 2 1 4

Shunday belgi qancha ko'p bo'lsa, shuncha yomon natija chiqadi.

Juft ranglarni izohlash

1-jadval. «Q Q» vaziyat.

Birinchi ko'k rang

Q1 Q2 (ko'k rang va yashil) - qoniqish hosil qilishi hissi, xotirjamlik, xotirjamlik sharoitiga intilish, ziddiyatlar(muammo, janjal)da qatnashishni istamaslik.

Q1 Q 3 (ko'k rang va qizil) - o'zini to'laqonli his qilish, faoliyat bilan o'zaro moslashishga jadal harakat qilish.

Q1 Q 4 (ko'k rang va sariq) - uncha xotirjam emas, his tuyg'uga to'la, yaqin aloqalarga unchalik qiziqmaydi. Boshqalarni unga e'tibor berishini xohlaydi.

Q 1 Q 5 (ko'k rang va siyoxrang) - uncha xotirjam emas, atrof-muhit go'zalliklarini sezishga harakat qilish.

Q 1 Q 6 (ko'k rang va jigarrang) - xotirjam emas, qo'rquv, yakkalik, ziddiyatlardan chiqib ketishga harakat qilish, ruhiy zarbaga tushmaslikka intilish.

Q 1 Q 7 (ko'k rang va qora) - manfiy holat, tinchlikka harakat, hordiqqa, uidan qoniqmaslik, bo'layotgan hollarga manfiy qarash.

Q 1 Q 0 (ko'k rang va kulrang) - manfiy holat, ruhiy azobdan qutilish istagi, tinchlik va hordiqqa intilish.

Birinchi rang yashil

Q 2 Q 1 (yashil va ko'k) - ijobiy holat, faoliyatga harakat qilish, atrofdagilar tomonidan tan olinishini xohlash.

Q 2 Q 3 (yashil va qizil) - g'alabaga faol harakat qilish, to'siqlardan o'tishga, topshiriqlarni o'zi hal qilishga intilish.

Q 2 Q 4 (yashil va sariq) - tan olinishni, elga tanilishni xohlash, uncha xotirjam emas.

Q 2 Q 1 (yashil va siyoxrang) - uncha xotirjam emas, tan olishni xohlash, elga tanilish, tashqi tomondan qilgan ishiga qanday qarashlariga yuqori e'tibor bilan qarashga intilish.

Q 2 Q 7 (yashil va qora) - xafalik hissi, bo'g'ilish, qattiq qo'llikka harakat qilish, avtoritar (ko'r-ko'rona) aloqa.

Q 2 Q 0 (yashil va kulrang) - qoniqmaslik hislari, tan olishlariga harakat qilish, taassurot qoldirish.

Birinchi rang qizil

Q 3 Q 1 (qizil va ko'k rang) - ishonch, harakat, faoliyatga harakat, taassurotlarga qoniqqanlik.

Q 3 Q 2 (qizil va yashil) - ishonch, harakat, maqsadga intilish, baland to'siqlardan o'tishga, faoliyatda yuqori cho'qqilarga erishishga bo'lgan harakat.

Q 3 Q 4 (qizil va sariq) - ishonch, yaqinlashishga harakat, faoliyatini kengaytirishga harakat qiluvchi.

Q 3 Q 5 (qizil va siyoxrang) - jadal harakat, har doim ham to'g'ri emas, taassurot qoldirishga harakat.

Q 3 Q 6 (qizil va jigarrang) - manfiy kayfiyat, ish yurishmasa xafaqon, yaxshi holatlardan chiqishga norozilik.

Q 3 Q 7 (qizil va qora) - manfiy kayfiyat, bo'g'ilish, yaxshi bo'lmagan holatlardan chiqib ketishga harakat.

Q 3 Q 0 (qizil va kulrang) - qoniqmagan hissiyot, tavakkalchilikka harakat.

Birinchi rang sariq

Q 4 Q 1 (sariq va qizil) - kayfiyati yaxshi, ijobiy his-tuyg'ularga, birbirini qo'llashga harakat.

Q 4 Q 2 (sariq va yashil) - kayfiyati umuman olganda yaxshi, insonlar oldida turgan echimlardan chetlash istagi, o'zini o'zi tasdiqlashga intilish.

Q 4 Q 3 (sariq va qizil) - ishchanligi o'z hayolida bir muncha ortiq keng faollikka bo'lgan harakat.

Q 4 Q 5 (sariq va siyoxrang) - kayfiyati past (yoki yorug') xabarlarini olishga, taassurot qoldirishga bo'lgan harakat.

Q 4 Q 6 (sariq va jigarrang) - manfiy kayfiyat, har qanday qiyinchiliklarni chetlab o'tishga harakat, echimlarga boshqacha qarashga intilish.

Q 4 Q 0 (sariq va kulrang) - manfiylik, ruhan siqilgan holat, qanday bajarishni aniq tasavvur qila olmaslik.

Birinchi rang siyohrang

Q 5 Q 1 (siyoxrang va ko'k rang) - chegaralangan kayfiyat, kelishuvchanlikka harakat va monandlik.

Q 5 Q 2 (siyoxrang va yashil) - ehtiyotkorlik, taassurot qoldirishga haqarakat.

Q 5 Q 3 (siyoxrang va qizil) - oz-moz hayajon, qiziquvchanlik taassurot qoldirishga harakat.

Q 5 Q 4 (siyoxrang va sariq) hayajonlangan, fantastik, ajralib turadigan hollarga harakat.

Q 5 Q 6 (siyoxrang va jigarrang) - hayajonlangan, kuchli histuyg'ulardan xavotirlanadi.

Q 5 Q 7 (siyoxrang va qora) - manfiy holat.

Q 5 Q 0 (siyoxrang va kulrang) - butun bor e'tiborini bir erga to'plash, har xil majoro va ruhiy zarblardan o'zini tortish.

Birinchi rang jigarrang

Q 6 Q 1 (jigarrang va ko'k rang) - zo'r berish, yakkalik, qo'rquv, yomon holatlardan chiqish istagi.

Q 6 Q 2 (jigarrang va yashil) - xotirjam emas, xato qilmasligi uchun o'zini ustidan qattiq nazorat qilishga harakat.

Q 6 Q 3 (jigarrang va qizil) - his-tuyg'ular olishga faol harakat.

Q 6 Q 4 (jigarrang va sariq) - qoniqarli yo'nalishlarda ishonchni yo'qotish, o'ylab ko'rilmagan echimlarni qo'llash.

Q 6 Q 5 (jigarrang va siyoxrang) - qoniqish hosil qilmaslik hissi, yaxshi sharoitga intilish.

Q 6 Q 7 (jigarrang va qora) - manfiy holat, xafagarchilik, tinchlikka harakat hamda faol ishtirok etishni istamaslik.

Q 6 Q 0 (jigarrang va kulrang) - juda (qattiq) manfiy holat, katta tashvishlardan ketishga harakat, tashvishni bartaraf qilishdan qochish.

Birinchi rang qora

Q 7 Q 1 (qora va ko'k rang) - qattiq manfiy holat, tashvishlardan ketishga harakat.

Q 7 Q 2 (qora va yashil) - hayajonlangan, atrofdagilar bilan yomon aloqada.

Q 7 Q 3 (qora va qizil) - kuchli hayajon, affekt (jazavali) harakat bo'lishi mumkin.

Q 7 Q 4 (qora va sariq) - juda ham yomon holat.

Q 7 Q 5 (qora va siyoxrang) - juda kuchli o'zaro moslikka orzu.

Q 7 Q 6 (qora va jigarrang) - hayajonli, echimi yo'q misollarni o'z oldiga qo'yish.

Q 7 Q 0 (qora va kulrang) - qiyin hollardan chiqib ketolmaslik hissi, hamma narsalarga qarshilik ko'rsatish. Bu qarshilik bir xil emas.

Birinchi rang kulrang

Q 0 Q 1 (kulrang va ko'k rang) - manfiy holat, osoyishtalikka harakat.

Q 0 Q 2 (kulrang va yashil) - manfiy holat, o'ch olishga intilish, hissiyotlarini atrofdagilardan va boshqalardan yashirish.

Q 0 Q 3 (kulrang va qizil) - manfiy holat, atrofdagilarga yuqori talablar, har doim ham bir xil bo'lmaydi.

Q 0 Q 4 (kulrang va sariq) - manfiy holat, tashvishlarni hal qilmay undan chetlashish.

Q 0 Q 5 (kulrang va siyoxrang) - xotirjam emaslik, hissiy, zo'r berib hamma o'y fikrlari bir joyga qaratilgan his-tuyg'ularini sir tutishga harakat.

Q 0 Q 6 (kulrang va jigarrang) - juda qattiq manfiy holat, hamma qiyin holatlardan ketishga harakat.

Q 0 Q 7 (kulrang va qora) - juda qattiq manfiy holat, xafagarchilik, kamsitilganlik hissi.

2- jadval. «x x» vaziyati. Birinchi rang ko'k

× 1 × 2 (ko'k rang va yashil) - kim tomonidan qo'llab-quvvatlab va tan olgan narsalarni tushunish hamda unga hamdard bo'lish

× 1 × 3 (ko'k rang va qizil) - bir-birini tushungan holda oldingi o'rinda turish bilan hamkorlikka harakat.

× 1 × 4 (ko'k rang va sariq) - bir guruh ishongan insonlar bilan hamkorlikka harakat.

× 1 × 5 (ko'k rang va siyoxrang) - yuqori sezuvchanlik atrof muhitdan estetik o'ziga o'xshagan sherikka muhtojlik.

× 1 × 6 (ko'k rang va jigarrang) - uncha katta kuch sarf qilmasdan xavfli bo'lmagan va tinch muloqotga harakat.

× 1 × 7 (ko'k rang va qora) - uni tan oladigan va hurmat qiladigan insonlar bilan aloqa qilishga harakat qiladi, lekin boshqa vaziyatlarda munosabatlarini uzish.

× 1 × 0 (ko'k rang va kulrang) - yuqori sezuvchanlik va yordam berishga harakat, tushunadigan yaqin insonlardan uni qo'llab-quvvatlashlariga harakat.

Birinchi rang yashil

× 2 × 1 (yashil va ko'k) - saramjonlikka moyil hamkorlik qilayotgan insonlardan uni tan olishlariga va hurmat qilishlariga intiladi.

× 2 × 3 (yashil va qizil) - boshqarishga moyillik, oldiga qo'yilgan rejalarni bajarishda o'ziga ishonmaslik hissi.

- × 2 × 4 (yashil va sariq) - obro'siga faol intiladi.
- × 2 × 5 (yashil va siyoxrang) - o'zi to'g'risida yaxshi taassurot qoldirishga harakat, yon berishlik.
- × 2 × 6 (yashil va jigarrang) - o'zini majarolardan ozod qilishga harakat, tinch osoyishta holat.
- × 2 × 7 (yashil va qora) - murosasiz, o'zini xudbin maqsadiga erishish uchun harakat.
- × 2 × 0 (yashil va kulrang) - egallagan lavozimiga ishonchsizlik, muhofaza vaziyati.

Birinchi rang qizil

- × 3 × 1 (qizil va ko'k) - hamkorlikka, bir-birini tushinishga harakat.
- × 3 × 2 (qizil va yashil) - tashabbuskorlik, birinchi o'rinda bo'lish holati.
- × 3 × 4 (qizil va sariq) - tashqariga harakat, bo'layotgan voqealar uning istagi bo'yicha bo'lishini, agar bunday bo'lmasa-siqilish va o'ylab ko'rilmagan harakat.
- × 3 × 5 (qizil va siyoxrang) - har xil his-tuyg'ularga boy o'ziga qaratuvchi va taassurot qoldiruvchi voqealarda qatnashishga moyillik.
- × 3 × 6 (qizil va jigarrang) - sekin harakatli, konformizm, osoyishtalikka, xavfsiz holatga intilish.
- × 3 × 7 (qizil va qora) - sinalayotgan insonni fikri, uni maqsadini oshirishga halaqit beradi, o'z ichidan to'siq o'ylab chiqadi.
- × 3 × 0 (qizil va kulrang) - beixtiyorlik va bo'g'iluvchanlik astoydil harakat qilolmaslik.

Birinchi rang sariq

- × 4 × 1 (sariq va ko'k) - tashqi ta'sirlarga moyillik, hozirjavob, qo'llab-quvvatlashlarga intiladi.
- × 4 × 2 (sariq va yashil) - yaxshi harakatlarga ishonch va muvaffaqiyat.
- × 4 × 3 (sariq va qizil) - faollikka etarlicha harakat qilmaydi.
- × 4 × 5 (sariq va siyoxrang) - boy tasavvur, sezgirlik, biror bir narsaga baland ishtiyoq bilan qiziqadi.
- × 4 × 6 (sariq va jigarrang) - ishonchsiz, xavfsizlikka intilish.
- × 4 × 7 (sariq va qora) - xavfni sezish va qiyin vaziyatlardan chiqishni izlash, zo'r berish holati.
- × 4 × 0 (sariq va kulrang) - qiyinchiliklarni echimini axtarish, maqsadga erisholmaslik hissi.

Birinchi rang jigarrang

- × 6 × 1 (jigarrang va ko'k) - xavfsizlikka moyillik va do'stlik aloqalarini xohlash.

× 6 × 2 (jigarrang va yashil) - qandaydir ishni bajarishda qiyinchilikni his qilish istagida qiyinchilik sezish, holatning engil bo'lishini istashi.

× 6 × 3 (jigarrang va qizil) - qiyinchiliklarni engib o'tishni xohlamaslik, tinch holatda bo'lishga harakat.

× 6 × 4 (jigarrang va sariq) - ishonmaslik hissi, tinch holatda bo'lishga harakat.

× 6 × 5 (jigarrang va siyoxrang) - go'zallikdan rohat olishga harakat, yoqimsiz taassurotlarga manfiylik.

× 6 × 7 (jigarrang va qora) - jismoniy og'riqni his qilish, kuchli his tuyg'ularni yoqtirmaslik.

× 6 × 0 (jigarrang va kulrang) - qo'yilgan maqsadga erishishga ishonmaslik, muammolardan qochish.

Birinchi rang qora

× 7 × 1 (qora va ko'k) - tinchlik va hordiqqa moyillik, yaqin qadrdon insonlardan uni tinchlantirishlarini xohlaydi.

× 7 × 2 (qora va yashil) - asoslanmagan talablar va bu talablarni tez qoniqtirilishini xohlaydi.

× 7 × 3 (qora va qizil) - o'zini sinalayotgan juda muhim maqsadi yo'lida to'siqlar qo'yilyapti deb hisoblaydi.

× 7 × 4 (qora va sariq) - hosil bo'lgan holat xavf tug'dirishi mumkin. Noto'g'ri echimli qabul qilish mumkin.

× 7 × 5 (qora va siyoxrang) - uni yaqin insoni tushunishini va uni qo'llab-quvvatlashga moyillik.

× 7 × 6 (qora va jigarrang) - jismoniy og'riqni his qilish, o'zini o'zi baholashining pasayishi.

× 7 × 0 (qora va kulrang) - hosil bo'lgan holatdan qoniqmaslik, bu vaziyatdan chiqishning qiyin yo'llari.

Birinchi rang kulrang

× 0 × 1 (kulrang va ko'k) - ziqlikni his qilish, o'zaro aloqalarni va o'zaro bog'liqliklarni tushunmaslik.

× 0 × 2 (kulrang va yashil) - o'z-o'zini yashirgan holda qiyin vaziyatlarda o'z maqsadiga erishishga harakat.

× 0 × 3 (kulrang va qizil) - maqsadiga etishishda qiyinchiliklarni his qilish.

× 0 × 4 (kulrang va sariq) - qoniqmaslik, vaziyatlardan chiqib ketishga qobiliyati yo'q.

× 0 × 5 (kulrang va siyoxrang) - o'ziga ishonmaslik, qo'rquv va maqsadiga erisha olmaslik.

× 0 × 6 (kulrang va jigarrang) - yordam bera olmaslikni his qiladi, xavfsizlikka intilish, tashvishlardan qochish.

× 0 × 7 (kulrang va qora) - hosil bo'lgan holatdan kelib chiqqan holda ruhiy zarbni sezishi, shu vaziyatdan chiqib ketishga harakat.

Birinchi rang ko'k

q 1 q 2 (ko'k va yashil) - qoniqmaslik hissi, uning o'ylarini chala baholashadi, uning fikri bo'yicha undan qobiliyati past bo'lgan insonlar bilan hisob-kitob qilish.

q 1 q 3 (ko'k va qizil) - hamkorlikni xohlayotganda undagi to'siqlardan diskomfort hissi.

q 1 q 4 (ko'k va sariq) - yuqori talabchan, sherigining his-tuyg'ulariga to'la aloqada, yaqinlashishga xalal berilganda o'zida erkinlikka harakat.

q 1 q 5 (ko'k va siyoxrang) - xafagarchilik hissi, o'ta ketgan xudbinligi uchun boshqalar bilan aloqasi yo'q.

q 1 q 6 (ko'k va jigarrang) - diskomfort hissining berkligi.

q 1 q 7 (ko'k va qora) - his-tuyg'ularga to'la holatining sekinlashtirishni xohlamaslik.

q 1 q 0 (ko'k va kulrang) - yaqin aloqalarga intilish, javobgarlikni bo'yniga olmasdan birovlarga yuklash.

Birinchi rang yashil

q 2 q 1 (yashil va ko'k) - izohlash, q 1 q 2 ga yaqin qoniqmaslik hissi, uning o'ylarini chala baholashadi, tushunishmaydi, majburiy murosadan xafa, his-tuyg'ularga qiziqmaydi.

q 2 q 3 (yashil va qizil) - holati frustratsiyaga yaqin: o'zini to'g'riligini isbotlayotganda to'siqlarni his qiladi. Faol kurashishga harakati yo'q. Mojarolardan qochib har qanday murosaga tayyor.

q 2 q 4 (yashil va sariq) - qoniqmaslik hissi, uyida boshqalardan ko'ra unga ko'p qiyinchiliklar bo'lyapti. Shu bilan birga egiluvchanligini ko'rsatib, faol harakat qiladi.

q 2 q 5 (yashil va siyoxrang) - qoniqmaslik hissi, xafagarchilik, hech kim uni tushunmaydi, uning fikri bo'yicha o'z fikrini o'zgartirish mumkin.

q 2 q 6 (yashil va jigarrang) - paydo bo'lgan qiyinchiliklarni eng olmaslik hissi va ularni engish emas, balki o'z fikrini o'zgartirish.

q 2 q 7 (yashil va qora) - moslashishlikka harakat.

q 2 q 0 (yashil va kulrang) - ishonmaslik hissi, shu vaqtning o'zida buni boshqalarga bildirmaslik, o'sha holatga moslashishga harakat, hamma narsani yaxshidek qilib ko'rsatadi.

Birinchi rang qizil

q 3 q 1 (qizil va ko'k) - qoniqmaslik hissi, yakkalik, hamkorlikka erishishda qiyinchilik.

q 3 q2 (qizil va yashil) - o'zini to'g'riligini ko'rsatib berolmaganligi uchun qoniqish hosil qilmaslik hissi, qandaydir murosaga intilish.

q 3 q 4 (qizil va sariq) - maqsadga erishish uchun harakat, tashqi ishonchsizlik, ko'mak olish ishtiyoqi mavjud.

q 3 q 5 (qizil va siyoxrang) - o'ta ketgan xudbinlikni ko'rsatadi, xafagarchilik uning fikricha uni hech kim tushunmaydi va qo'llabquvvatlamaydi.

q 3 q 6 (qizil va jigarrang) - og'ir ahvolni sezishi va ojizlik.

q 3 q7 (qizil va qora) - rejalarini amalga oshirishda chegaralanganligini sezish, harakatlaridan uyalish.

q 3 q 0 (qizil va kulrang) - to'siqlarni engib o'tolmasdan xafa bo'lish, ishlarga faol qatnashishdan qaytish, tinchlikka harakat.

Birinchi rang sariq

q 4 q 1 (sariq va ko'k) - his-tuyg'ularga ortiqcha talabchanligi uchun ko'ngli qolgan.

q 4 q2 (sariq va yashil) - maqsadi yo'lida turgan qiyinchiliklardan xafalik, lekin ularni engib o'tishda faol harakat.

q 4 q 3 (sariq va sariq) - tashidan aniq rejalarini ko'rsatishga harakat va ichida ikkilanish, qo'llab-quvvatlashlarini xohlaydi.

q 4 q 5 (sariq va qizil) - tashidan o'ziga ishonganligini ko'rsatish, qo'llab-quvvatlashlarini xohlamaydi.

q 4 q 6 (sariq va jigarrang) - sherik tanlashda katta talablar qo'yishni ko'rsatadi.

q 4 q7 (sariq va qora) - bir fikrlilik, sherik tanlashda unga katta talablar qo'yadi.

q 4 q 0 (sariq va kulrang) - ish faoliyatida his-tuyg'ularga bog'lanib qolganligini ko'rsatadi.

Birinchi rang siyoxrang

q 5 q 1 (siyoxrang va ko'k) - xudbinligi uchun tashqi muhitdan chegaralanganligi, yakkalik hissi.

q 5 q2 (siyoxrang va yashil) - qoniqish hosil qilmaslik hissi, yakkalik, uni tushunmasliklari, xafagarchilik, imkoniyatlarini chala baholashadi, shu bilan birga, aniq holatlarni qo'llaydi va aniq ajrata biladi.

q 5 q 3 (siyoxrang va qizil) - to'g'ri tushunib, to'g'ri baholashlariga harakat, shu bilan birga xudbinligi uchun yakkalanganligi.

q 5 q 4 (siyoxrang va sariq) - tashidan ishonchlilik, ichki hissiyotida ikkilanish, qo'llab-quvvatlashlariga moyillik va tan olishlarini xohlaydi.

q 5 q 6 (siyoxrang va jigarrang) - hudbinligi tufayli voqealarni his-tuyg'ulari bilan baholashga rozi.

q 5 q7 (siyoxrang va qora) - his-tuyg'ulari borasida ehtiyotkorlikni ko'rsatadi.

q 5 q 0 (siyoxrang va kulrang) - xafachilik hissi, ochiq mojarolardan qochish harakati va his-tuyg'ular bilan o'ralgan.